

Nozima Sulaymonova

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Farg'ona Davlat Universiteti

Нозима Сулаймонова

Ферганский Государственный Университет

Преподаватель кафедры дошкольного образования

Nozima Sulaymonova

Fergana State University

Teacher of the Department of Preschool Education

**ALBER KAMYU VA XURSHID DO'STMUHAMMAD SHARQ VA
G'ARB MUSHTARAKLIGI**

Annotatsiya: Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romanida majoziy obrazlar zamiriga juda katta ma'no yuklatiladi. Noan'anaviy yo'nalishida yaratilgan, badiiy va falsafiy tafakkur uyg'unligi mujassamlashgan X.Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romani adabiyotimizga yangi uslubiy janr o'zgarishlarini olib kirdi. Shu ma'noda, adib ijodidagi badiiy-psixologik tahlilning nozik bir jihatni qayd etish joiz. Xususan, keyingi paytda X.Do'stmuhammad ijodiy izlanishlari insonning pinhon dunyosi-xayollari, fantaziyasini aks ettirishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda birinchidan, olamni, odamni badiiy idrok va ifoda etishda bashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashish ustivor tamoyilga aylandi. Badiiy asarlarda hayot manzaralarini, jamiyat psixologiyasini shaxs erki, vijdon erkinligi kabi masalalarning ahamiyatini tushuntirish sari yuz burdi. Ikkinchidan, falsafiy psixologizm-ramzlar, timsollar asosiga qurilgan badiiy tafakkur mohiyatan realistik tasvir prinsiplarini boyituvchi hamda kengaytiruvchi ijodiy uslubiy yo'nalish sifatida yorqin tajassum topib bormoqda. Ushbu hodisada psixologik tahlil fikrchan kechinmalar holatlarini, kayfiyatlar silsilasini yaratish hisobiga yangi sifat o'zgarishlar voqe bo'layotir.

Kalit so'zlar: modernizm, modern adabiyot, absurd, badiiy-psixologik tahlil, modern, mifologiya, ramziy obraz, simvolizm, neorealizm, esse, roman.

ALBER CAMUS AND KHURSHID FRIEND MUHAMMAD EAST-WEST COMMONWEALTH

Annotation: In the novel of Khurshid Dostmuhammad "Wise Sizif", the pronoun of figurative images is given a very large meaning. Created in an unconventional direction, embodied in the harmony of artistic and philosophical thought Kh.Dostmuhammad's novel "Wise Sizif" brought new stylistic genre changes to our literature. In this sense, it is permissible to note a subtle aspect of artistic and psychological analysis in the work of the writer. Specifically, at the next moment Kh.Dostmuhammad's creative quest is of particular importance with the reflection of a person's world of tweezers-dreams, fantasies. This first of all, the approach of the universe, a person from the point of view of human values in artistic perception and expression has become principle. In the works of art, the life landscape, the psychology of society has turned towards the explanation of the importance of such issues as freedom of person, freedom of conscience. Secondly, philosophical psychology-artistic thinking on the basis of symbols and symbols-is embodied as a creative methodological direction that enriches and enhances the principles of realistic images. Psychological analysis of this phenomenon is fraught with new qualitative changes on account of the creation of sets of sentimental sensations, mood states.

Base words and phrases: modernism, modern literature, absurdity, artistic-psychological analysis, modern, mythology, symbolic image, symbolism, neorealism, essay, novel.

Kirish. Milliy istiqlol davri o'zbek romanchiligimizda ravnaq topayotgan an'anaviy romanlar qatorida noan'anaviy romanlar ham taraqqiyot sari yuzlangan ekan, yozuvchilarimiz yillar davomida tazyiq ostida yashagan ong ozod bo'lishi, o'z individual uslublariga ega bo'lish bilan birga har bir asar ham individual bo'lishini anglab yetdilar. Tub islohotlar ta'sirida anglanayotgan

zamonda yangicha tafakkur hosilasi o'laroq yangi asar yaratilishi tabiiydir. Negaki, har bir davr o'z talab va ehtiyojiga ko'ra jamiyatda badiiy-estetik tafakkurni shakllantiradi. Xuddi shu o'rinda X.Dustmuhammad asarlari ham yangi shakllanib kelayotgan badiiy san'at tafakkuri asosida badiiy talqin etilgan jamiyat badiiy-estetik tafakkuri in'ikosidir. Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek adiblari G'arb so'z san'atining ilg'or tajriba va tamoyillarini faol o'zlashtirib, yangi o'zbek romanchiligi poetikasiga dadil olib kirmoqdalar. Shu bilan birga, milliy zamindan uzilmagan holda mazkur yangiliklarni an'analar bilan o'zaro omuxta qilmoqdalar. Hozirgi zamon o'zbek modern romanchiligining o'ziga xos xususiyati xuddi shunda ko'rinadi.

Maqsad va vazifa: Albatta, modernizm adabiyotini, absurd san'atini boshqa barcha oqimlar kabi qabul qilish yoki qilmaslik har kimning o'ziga bog'liq. Ammo oldindan tayyor qoliplar ko'magida "bu asar mana bunday ruhda yozilgan", "mana bu yo'nalishga oid", "o'zbek adabiyotiga xos emas yoki bu bizga tegishli" kabi xulosalarni oldindan aytib bo'lmaydi. Ayrim manbalarda absurd adabiyotiga qiziqish, havas o'z aksini topgan bo'lsa, ayrimlarida u ekzistensializm falsafasiga qo'shib butkul rad etiladi. Yaxlit xulosaga kelishning eng yaxshi yo'li esa tahlil va tavsif usulidir. Ayniqsa qiyosiy jihatdan tahlil qilish asar mazmuni va mavzusini yorqinroq tushunishga yordam beradi.

Usullar: Maqolada qiyosiy-tipologik, germeneytik, sotsiologik, struktural, psixologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Tarix g'ildiragi hamisha oldinga qarab aylanadi. Uni hech qachon ortga burib bo'lmaydi. Biroq ma'lum bir jamiyatda muayyan davrda yuz bergan voqea boshqa bir davrda, boshqa bir jamiyatda qaysidir ko'rinishda takrorlanishi mumkin. Tarixda bunga misollar ko'p. Isonni chor mixga tortgan olomon bilan Mansur Xalloyni dorga osgan olomon o'rtasida unchalik katta tafovut yo'q. Tafovut faqat vaqt deb atalmish sarhadning kengligida. Sarhad esa keng, cheksiz, cheksizlik esa absurddir. Absurd tushunchasi, eng avvalo, ana shu vaqt cheksizligi qarshisida lol turgan inson

shuurini aks ettiradi. San'at inson shuurini tadqiq etar ekan, qaysidir ma'noda absurdni tadqiq etadi. O'zigacha bo'lgan barcha adabiy yo'nalishlarda farqli ravishda aynan modernizm o'z e'tiborini oddiy odamning ichki olamini tasvirlashga qaratdi. Kamyu zamonaviy odam hayotini Sizif haqidagi afsona bilan taqqoslarkan, hayot fojiali va ko'p jihatdan bema'ni deb hisoblaydi. Shubhasiz, Kamyu qadim yunon mifologiyasidan olingan mashhur afsonaga yangi hayot bag'ishlaydi. Sizifning baxti shundaki, u, bir qarashda bema'ni va befoyda bo'lib ko'ringan ishida o'zicha ma'noni ko'radi. Kamyuning ifodalashicha, Sizif jahannamning mangu malayidir. Yozuvchi bu afsonadagi ramziy obraz hamda makon orqali real hayotga munosabat bildiradi. Uningcha, inson yashayotgan hayotning o'zi do'zax azobidan iboratdir. Odam bu hayotda qanday yashashni, kimga ishonishni, nimaga ko'ngil qo'yishni bilmaydi. "Shundan anglashiladiki, Sizif absurd qahramondir" degan xulosaga keladi Kamyu. Demak, bu ma'nisiz hayotda foydasiz urinish va ro'yobga chiqmaydigan umid bilan yashash absurdning falsafiy mohiyatini tashkil etar ekan. Sizif o'zining yer yuzidagi zavq-shavqli hayotiyu, dahshatli qilmishlari, jahannamda tortayotgan azob-uqubatiyu kulfatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak. Odamzod foniy dunyoda kechirgan behuda qilmishlari uchun boqiy dunyoda javob berishga majbur. Ajabki, insoniyat hayotining ikki bosqichidan tiriklik va o'limdan keyin kelib chiqadigan bu xulosa absurd falsafasining islom dini qoidalari va shartlariga ham yaqin kelishini ko'rsatadi. Alber Kamyuning absurd haqidagi essesi bilan tanishib, uning ko'hna Sharq adabiyoti, muborak islom dini qoidalariga mos keladigan jihatlari borligiga amin bo'lamiz. Birinchidan absurd huddi dinimizdagi singari odamning o'z-o'zini o'ldirishini keskin qoralaydi. Kamyuning yozishicha, o'z-o'zini o'ldirish gunohdir. Ikkinchidan bu yorug' dunyoga kelgan odam umidsiz yashamasligi kerak. Demak, umidvorlik absurdning doimiy yo'ldoshidir. Biroq, kutilgan umid ro'yobga chiqmaydi. Buning sabablarini insonning o'sha ma'nisiz hayotdagi manfaatlar zidligidan izlash kerak bo'ladi. Uchinchidan, Kamyu absurddan

quyidagi uch xulosani chiqaradi: isyon, erk va orzu-havas. Bular insonning yashashi va intilishi uchun zarur hodisalardir. Absurd asar tafakkur jarayoni bila bog‘liq tushuncha. Shu sababli absurd asar ko‘proq falsafiy mohiyat kasb etadi. Inson hamisha jumboq bo‘lib kelgan. Bu “jumboq”ni o‘rganish esa hamisha absurd savollarni, ularni o‘rganish esa absurd ijodni yuzaga keltiradi. Absurd – insonni badiiy tadqiq va tasvir etishning bir usuli, xolos. Shu ma’noda absurd ma’nisizlik emas, aksincha, ma’nisiz voqelik va hayolotning uyg‘unligidir. F. Kafka, A. Kamyu, J.S.Sartr, S. Bekket, E. Sabota va yana boshqa o‘nlab dunyo adabiyotida o‘zining munosib o‘rnini egallagan adiblarning ijodida ana shunday uyg‘unlik namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. “Sharq” va “G‘arb” alohida-alohida tushunchalar emas, balki yaxlit hodisalardir. Chinakam haqiqat esa ana shu ikki qutblarning birligidadir. Shuning uchun ham Cho‘lpon adabiyotni “Sharq va G‘arbnı tutashtiruvchi oltin ko‘prik” deb atagan edi. G‘arbu Sharq afsonalarida talay kesishadigan nuqtalar bor bo‘lib, ular ijod va uning tabiatini bir qadar tushunishimizga yordam beradi. Xullas, dunyoda ming yillar mobaynida bashariyat xotirasida saqlanib kelayotgan mif va afsonalarning o‘rni, ayniqsa, san’atu adabiyot uchun beqiyosdir.

Adiblarimiz kechagi kundan farq qilib, dunyoni, voqelikni bir xil rangda emas, balki boricha: turfa-turfa ko‘rayotirlar va o‘z ijodiy kredosidan kelib chiqib aks ettirayotirlarki, natijada o‘zbek nasri hozirdanoq har jihatdan xilma xil ko‘rinishga ega bo‘lib borayapti. Zamonaviy nasriy asarlar orasida tomomila an’anaviy yo‘llarda (realizm) yozilganlari ham, teran ramziy tafakkur mahsuli (simvolizm) sifatida taqdim etilganlari ham, yangilanayotgan badiiy tafakkur mevasi (modernizm, postmodernizm, neorealizm) o‘laroq sunilganlari ham mavjud. Ayni shu xusus nafaqat bugungi o‘zbek nasrining, balki, umuman Istiqlol davri o‘zbek adabiyotining asosiy xarakterli xususiyati bo‘lishi bilan birga, uning ulkan yutug‘i va imkoniyati sifatida ham baholanishga munosib. X.Do‘stmuhammad Alber Kamyuning g‘oyaviy niyatlarini Sizif obrazi orqali yanada kengaytiradi, uning xarakteriga yangicha fazilatlarni qo‘shadi, boyitadi,

badiiy jihatdan ko'rsatib beradi. Natijada absurd ta'limoti ma'nisizlik targ'ibotchisi emas, aksincha, hayotni ma'no va mazmun bilan boyitish insonning o'ziga bog'liq ekanligini, buning uchun u umid bilan yashashi, fikr qilishi lozimligini bilib olish mumkin. Kamyuning "Sizif haqida afsona" essesi bilan "Donishmand Sizif" romanini taqqoslab o'qish absurd mavzusining mohiyatini chuqurroq anglab yetishga imkoniyat yaratadi. Muallifning o'zi ham Sizif xarakterining shakllanishini, donishmandlik darajasiga ko'tarilish jarayonini tasvirlashda Kamyuning falsafiy qarashlariga asoslanganligi voqealar davomida aniq seziladi. Absurd qahramon ma'nisiz hayotni mazmun bilan boyitish uchun qat'iy iroda va yuksak aql-farosat bilan ish tutishi lozim. Shu ma'noda yozuvchi o'z Sizifini g'oyat irodali inson qiyofasida aks ettiradi: "Sizif uchun o'z irodasidan bo'lak madadkor, xaloskor yo'q edi". Iroda esa insonda sabr-toqat, bardosh tufayli shakllanadi. Agar Sizifdan "kimdir isming nima deb so'rasa, hech ikkilanmay, ismim matonat yoki ismim bardosh" deb javob bergan bo'lardi. Ana shu irodasi, sabr-bardoshi tufayli u ishga astoydil kirishadi va g'olib chiqadi. Tabiatidagi bu fazilat Sizifni o'zbek o'quvchisiga yanada yaqinlashtiradi. "Donishmand Sizif"da bu dunyo o'tkinchi, unda shaxsiy manfaatlar quliga aylanmaslik, aksincha, oldingga aniq maqsadni qo'yib, kuchli iroda bilan yashasang, albatta murodingga yetasan, degan yuksak falsafiy g'oya ilgari suriladi. Shu jihatdan bu asarni tom ma'nodagi falsafiy-intellektual roman deb atash mumkin. U o'quvchini jiddiy mushohada va mulohazaga undaydi. Sizif timsolida yozuvchi "Odam yengilmadi, tosh yengildi, toshga qo'shib tog' yengildi, cho'qqi yengildi, ma'budlarning ma'budi yengildi" degan muhim g'oyani ilgari suradi. Sizif chindan ham mashaqqatli mehnati tufayli g'alaba qozonadi. Uning bu g'oliblik g'ururidan o'quvchi "Mehnat mashaqqatidan odam o'lib qolmasligiga amin bo'ladi. Mehnat qilgan yashaydi. Baxt - mehnatsevarniki, mehnat mashaqqatlaridan qo'rqmaganniki" ekanligiga ishonadi. Xurshid Do'stmuhammad Alber Kamyuning falsafasini Sharq tafakkuri, islom falsafasi va tasavvuf bilan boyitibgina qolmay, bir vaqtning

o'zida G'arb va Sharq qorishiq epik tafakkurini Sizif misolida dunyoga ko'rsata bila oladi. Biz har-xil maqomga solib, tortishib, chalkashtirib yurgan absurd tushunchasi mohiyatini Kamyu va Xurshid Do'stmuhammad Sizif haqidagi qadimgi mif misolida sodda va lo'nda qilib ochib berganlar.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu maqola davomida modernistik oqim va yo'nalishlarning qirralari Alber Kamyuning "Sizif haqida asotir" hamda o'zbek adabiyotida Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" asarlari timsolida, tahlil jarayonida ochib berishga harakat qilindi. Ko'rinadiki, X.Do'stmuhammad ijodiy izlanishlarida shaxs qalbidagi, ongi-shuuridagi o'zgarishlarni ochishga qaratilgan badiiy idrok yetakchilik qilayotir. Zero, hozirgi davr asarlaridagi shaxs badiiy talqinida dunyodagi qotib qolgan tushuncha va aqidalarni o'zgartiruvchi insonning aql zakovatiga, kuch-qudratiga, ijodiy imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi kuchlidir. Bu adiblarimizning insonni va voqelik jarayonlarini ko'rish hamda ko'rsatishdagi ijodiy individualligi hamda estetik prinsiplarining o'ziga xosligini dalillash bilan birga romanchiligimizda tajassum topayotgan shaxs ma'naviy-intellektual dunyosining qirralari, tuyg'ulari nihoyatda sermiqyosaligidan, teranligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar: Links:

1. A. Qosimov, S. Xo'jayev. XX asr g'arb adabiyoti. – Toshkent: 2011.
2. Dilmurod Xoldorov. Ijod mohiyati – uslub xosiyati. –T.: Turon zamin diyor, 2017. -160 b.
3. Fayzulla Boynazarov. Jahon adabiyoti / oliy o'quv yutlari uchun. - Toshkent.: 2006. – 126 b.
4. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Jo'raqulov U. Mif va ijodiy jarayon. –T: 2005.
6. Muhayyo Yo'ldosheva. Yangilanishlar manguligi. /Adabiy tadqiqotlar. – Toshkent.: ADIB nashriyoti, 2011.

7. Muhammadjon Xolbekov . XX asr modern adabiyoti manzaralari. - T: 2014.
8. Nazar Eshonqul. "Mendan "Men" gacha". – Toshkent.: Akademnashr, 2014.
9. Албер Камю. Миф о Сизифе. 1942 г.
10. Alber Kamyu. Begona: qissa va roman. / Ahmad A'zam tarjimasi. – T.: Yozuvchi, 1995.
11. X.Do'smuhammad. Donishmand Sizif. – Toshkent.: O'zbekiston, 2016.